



MISGARLIK SAN'ATI HAQIDA

Nizomova Mohina Sherzod qizi

Navoiy viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyi, Ilmiy xodimi

O'zbekiston kashtachilik, misgarlik, ganchkorlik, yog'och o'ymakorligi singari xalq amaliy san'ati bilan butun dunyoga mashhur. Yog'ochga, misga, qog'ozga, matoga, ganchga chizib, o'yib, zarb bilan ishlangan naqsh-nigorolar ularning go'zalligi, nafisligi va ta'sirchanligi kishini o'ziga maftun etadi.

Shu san'at turlaridan biri misgarlik bo'lib, u qadim zamonlardan buyon davom etib kelayotgan san'atdir. Misgarlik deganda, misdan qurollar, uy-ro'zg'or buyumlari va boshqa jihozlar yasash kasbini tushunamiz. Misgarlik hunarmandchilikning qadimiy va keng tarqalgan turidir. Misgarlikda ishlatiladigan asosiy material – mis. Mis nima? Mis nima uchun ishlatiladi, degan savol tug'iladi.

Odamzod misni oltindan tashqari barcha boshqa metallardan oldin kashf etgan. Mis tarixdan ilgarigi davrlarda ham tosh davri odamlari tomonidan ishlatilgan. Mis ancha sof — aralashmalarsiz va metall zarralar shaklida uchraydi. Balki odamlar birinchi marta bu e'tiborni tortuvechi zarralarni chiroyli bo'lgani uchun yerdan ko'tarib olgan bo'lishi ham mumkin.

So'ngra odamzod bu g'alati qizg'ish toshga har qanday shakl berish mumkinligini bilib, katta kashfiyot qilgan. Bu quroq va pichoq yasashda toshni yo'ngandan ko'ra osonroq usul edi. Odamlar qizil toshlarni eritib, undan kosa va ko'zalar yasash mumkinligini aniqlaganicha oradan ancha vaqt o'tgan. Shundan keyin ular mis qazib olib, undan har xil asbob va idishlar yasashni boshlagan. Ming yillar davomida mis yagona ishlov beriladigan metall bo'lib qolgan, chunki oltin nafaqat juda kam, balki amaliy maqsadlar uchun juda yumshoq hamdir. Ehtimol, mis asboblar buyuk misr piramidalarini qurishda ham ishlatilgan bo'lishi mumkin.

XI-XII asrda Termiz misgarlari butun dunyoga mashhur bo'lgan. XII-XIII asrlarda O'rta Osiyoda mis buyumlari yasashga juda katta e'tibor berilgan. XVIII-XIX asrlarda Buxoro, Samarqand hamda Qo'qon, Xiva kabi shaharlarda a'lo darajali bronza va misdan idishlar yasash keng tarqalgan edi. Misgarlik san'atining o'ziga xos maktablari bo'lib, ular Qo'qon, Toshkent, Samarqand, Xiva va boshqa shaharlarda bo'lgan. Mis idishlar ikki yo'l bilan birinchisi misni eritib quyib, ikkinchisi bolg'alab yasalgan. Bolg'alab yasashda sangdondan foydalanilgan. Buyumni yasashda metal tez-tez qizdirib turiladi.

Misga o'yib naqsh solish mumkin. Ammo uni sindirish oson emas. Bundan tashqari, uni boshqa metallar bilan birlashtirib, bronza va jez kabi qotishmalar hosil qilish mumkin.

Misgarlik san'ati ham kandokorlik san'ati an'analariga yaqin turadi. Misdan ishlangan buyumlar qadimdan o'zbek xonodonlarida keng qo'llanib kelingan. Bu buyumlar Buxoro, Qarshi, Shahrисабз, Qo'qon,

Toshkent singari yirik hunarmandchilik markazlarida keng miqyosda, har biri o'z milliy an'analariga mos uslubda ko'plab miqdorda tayyorlangan.

Buxoroda asosan choy idishlar, oftobalar, chilimlar, dastsho'ylar tufdonlar, har xil shakldagi oziq-ovqat saqlash idishlari yasalgan. Bu buyumlar "islimiy" hamda "chashmi bulbul" naqshlar bilan ziynatlangan.

Qarshi, Shahrisabz misgarlik buyumlari Buxoro mis buyumlariga qaraganda oddiyligi va bir hilligi bilan ajralib turadi.

Toshkentda misdan kashkul, barkash, obdasta, satil, suv tashiydigan, ovqat saqlaydigan idishlar, Qo'qonda choy idish, choynak, ko'za, oftoba, lagan, dastsho'ylar yasalgan. Qurol-aslahalar ishlash san'ati ham juda qadimiy bo'lib, o'z milliy uslubini saqlab qolgan hunarlardan biridir. O'zbek ustalari ishlagan qinli hanjar va qilichlar, sovut, qalqon, dubulg'a, yugan, bo'yin bog'ich, oyboltalar naqsh bezaklariga juda boy nafis buyumlardir.



XIX asrga oid misdan yasalgan, dumaloq gumbazsimon shaklga ega barkashning ustki qismi bezaklar yordamida bezalgan. Barkashdan asosan amaldorlar, amirlar va oliy tabaqa vakillariga taomlar olib borishda oshxonanomi sifatida ishlatilgan. Taom solingan lali usti doim yopiqligicha saqlangan. Taomlarning barkash ichida olib borilishi ko'z, suq, turli balo qazolarning oldini olgan bo'lsa, gigiyenik jihatdan ovqat sifati buzilmasligi va toza saqlanishini ta'minlagan. Hozirda Yevropa tamaddixonalarida xuddi bizning barkashga o'xshagan va uning ko'rinishida yasalgan buyumlar uchraydi. Bizning bobokalonlarimiz XVIII-XIX asrlardayoq bu buyumning yasalishidan tortib, aql bovar qilmas xususiyatlarigacha kashf etganlar. XIX asrga oid misdan yasalgan, dumaloq gumbazsimon shaklga ega barkashning ustki qismi bezaklar yordamida bezalgan.

Barkashdan asosan amaldorlar, amirlar va oliy tabaqa vakillariga taomlar olib borishda oshxonanomi sifatida ishlatilgan. Taom solingan lali usti doim yopiqligicha saqlangan. Taomlarning barkash ichida olib borilishi ko'z, suq, turli balo qazolarning oldini olgan bo'lsa, gigiyenik jihatdan ovqat sifati buzilmasligi va toza saqlanishini ta'minlagan. Hozirda Yevropa tamaddixonalarida xuddi bizning barkashga o'xshagan va uning ko'rinishida yasalgan buyumlar uchraydi. Bizning bobokalonlarimiz XVIII-XIX asrlardayoq bu buyumning yasalishidan ortib, aql bovar qilmas xususiyatlarigacha kashf etganlar.



Obdasta (forscha: suv va dasta), "oftoba" — ro'zg'or buyumi, yuz-qo'lni yuvishda ishlatalidigan idish. Obdasta bo'g'zi uzun va tor, quyi qismi (qorni) keng, ba'zan tubida chambaragi bo'ladi (Qo'qon va Toshkent obdastalari), qopqoqli, uzun va ingichka jo'mrakli, dastali. Qadimdan mis va sopoldan ishlangan, keyinchalik cho'yandan tayyorlana boshlangan, hozirda, shuningdek, zavodlarda alyuminiydan va plastmassadan quyib tayyorlanadi.

Miskarlar shakliga ko'ra, turli xil obdasta (o'rdak obdasta, tovus obdasta, tuyabo'yin obdasta va boshqalar) tayyorlaganlar, kandakor ustalar ularni kandakori usulida turli xil nafis naqshlar bilan, ba'zan ko'zlar qadab ajoyib badiiy buyumlar yaratadilar. Ziynatlangan obdasta namunalari respublika muzeylarida, xususiy to'plamlarda saqlanadi. Andijon, Namanganda obdasta, Qashqadaryoda ibriq deb ataladi.

Bugungi kunda Navoiy viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyida XIX-XX asrlarga tegishli noyob va nodir mis buyumlari saqlanib kelinmoqda. Bular : mis barkash, mis qozon, osma qozon, dastshuy, obdasta, mis kosa, mis la'li, mis ko'za muzeyga tashrif buyurgan sayyoohlarda katta qiziqish uyg'otmoqda.